

# Andijon viloyat statistika boshqarmasi



## 2018 yil yanvar-noyabr oylarida Andijon viloyatining sanoat ishlab chiqarishi

### RAQAMLAR:

- Sanoat ishlab chiqarish hajmi **21829,7 mlrd. so'mni**, o'sish **142,7 %** ni;
- Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi **17288,3 mlrd. so'mni**, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati **146,5 %** ni;
- Iste'mol tovarlarning jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi **79,2 %** ni;
- Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi – **20,8 %** ni tashkil etdi

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2018 yilning yanvar-noyabr oylarida viloyatimizda korxonalar tomonidan **21829,7** mlrd.so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati **142,7 %** ni tashkil etdi.

Mahsulotlar ishlab chiqarishning eng katta hajmi ishlab chiqaradigan (qayta ishlaydigan) korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan bo'lib, ularning jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi **97,8** foizni, o'sish sur'ati **143,5** foizni tashkil etdi. Sanoat ishlab chiqarishning oshishiga elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalar ham hissa qo'shdi, ularning jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi **1,6** foiz, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **116,2** foizni tashkil etdi.

### 2018 yil yanvar-noyabr oylarida asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi

Ishlab chiqaradigan sanoat (o'sish sur'ati **143,5 %**, jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi **97,8 %**)

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash (o'sish sur'ati **102,7 %**, jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi **0,4 %**)

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash (o'sish sur'ati **116,2 %**, jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi **1,6 %**)

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilitatsiya qilish (o'sish sur'ati **123,1 %**, jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi **0,2 %**)



***Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash.***

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi **91,8** mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining **0,4 %** ni tashkil etdi.

***Ishlab chiqaradigan sanoat (qayta ishlash sanoati).***

2018 yilning yanvar-noyabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi **21341,8** mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining **97,8 %** ni tashkil etdi.



***Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash.***

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi **358,7** mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining **1,6 %** ni) tashkil etdi.

***Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish.***

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi **37,4** mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining **0,2 %** ni) tashkil etdi.




### Shahar va tumanlarning sanoat ishlab chiqarishi.

Andijon viloyatida sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p Asaka tumani (viloyatida sanoat ishlab chiqarish hajmning 61,3 % ulushini), Andijon shaharlari (16,9 %), Honobod shaharlari (3,9 %), Shahrixon (2,5 %), Andijon (2,4 %) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

### 2018 yilning yanvar-noyabr oylarida hududlarning jami sanoat ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari

1-diagramma



Shu bilan birga eng kam ulush Bo'z (0,4 %), Ulug'nor (0,4 %), Buloqboshi (0,7 %), va Paxtaobod (0,6 %) tumanlariga to'g'ri keladi.

Shuni ta'kidlash joizki, raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha yuqori texnologiyali loyihalarni amalga oshirish natijasida Andijon (2017 yilning


yanvar-noyabr oylariga nisbatan 132,6 % ga), Honobod (121,6 % ga) shaharlarida, Asaka (164,7 % ga), Қўрғонтепа (114,4 % ga) tumanlarida sezilarli darajada ishlab chiqarish hajmining oshishi ta'minlandi.

***Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish.***

Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida iste'mol tovarlar ishlab chiqarish hajmi **17288,3** mlrd.so'mni tashkil etdi va 2017 yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan **146,5 %**, jami sanoatdagi ulushi esa **79,2 %** ni tashkil etdi.


***2018 yilning yanvar-noyabr oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari***

2-diagramma




### Yanvar-noyabr oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmining tarkibi, % da

3-diagramma



### 2018 yilning yanvar-noyabr oylarida shahar va tumanlar bo'yicha iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari

4-diagramma



## Andijon viloyat statistika boshqarmasining Sanoat statistikasi bo'limi

Nashr uchun mas'ul: A.Ibroximov  
Aloqa telefoni: (0371) 230-82-57